

BRITAN VA AMERIKA INGLIZ TILI O‘RTASIDAGI FARQLAR**Xodijayeva Sevinch**

*Samarqand davlat chet tillari insituti Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti
ingliz filologiyasi yònalishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilining ikki asosiy variant-Britan ingliz tili va Amerika ingliz tili o‘rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Mazkur farqlar talaffuz, imlo, lug‘at boyligi hamda grammatik jihatlar orqali yoritib beriladi. Shuningdek, bu farqlar qanday tarixiy va ijtimoiy omillar ta‘sirida shakllangani haqida ham qisqacha ma‘lumot beriladi. Maqola talabalarga sodda va tushunarli tarzda yozilgan bo‘lib, ingliz tilini o‘rganishda ushbu farqlarni anglash muhim ekanligi asoslab beriladi.

Kirish

Bugungi kunda ingliz tili dunyoda eng keng tarqalgan tillardan biri hisoblanadi. U xalqaro aloqa, ta‘lim, biznes va turizm sohalarida muhim o‘rin egallaydi. Ammo ingliz tilining yagona shakli yo‘q. Eng mashhur va keng qo‘llaniladigan ikki variant-Britan ingliz tili va Amerika ingliz tilidir. Bu ikki variant bir-biriga juda o‘xshash bo‘lsa-da, ular o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. Ushbu farqlar asosan talaffuzda, yozuvda (imloda), so‘z tanlashda va ba‘zi grammatik qoidalardadir. Masalan, bir xil ma‘noni ifodalovchi so‘zlar turlicha yozilishi yoki aytilishi mumkin. Bugungi kunda ingliz tilini o‘rganayotgan talabalar uchun bu farqlarni bilish juda muhim. Chunki ular xalqaro imtihonlarda (masalan, IELTS) ham, real hayotdagi muloqotda ham foydali bo‘ladi.

Asosiy qism

Britan va Amerika ingliz tili o‘rtasidagi farqlar, avvalo, talaffuzda yaqqol ko‘rinadi. Masalan, Britan ingliz tilida “r” tovushi ko‘pincha so‘z oxirida talaffuz qilinmaydi. Amerika ingliz tilida esa aksincha, bu tovush aniq aytiladi. Masalan, “car” so‘zi Britan variantida “kaa” kabi eshitilsa, Amerika variantida “kar” tarzida talaffuz qilinadi. Bu esa tinglab tushunishda muayyan qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Keyingi muhim farq-imlo (yozuv) bilan bog‘liq. Amerika ingliz tilida so‘zlar ko‘pincha qisqaroq va soddaroq yoziladi. Masalan, Britan ingliz tilidagi “colour”, “favourite” kabi so‘zlar Amerika ingliz tilida “color”, “favorite” tarzida yoziladi. Shuningdek, “centre” so‘zi Amerika ingliz tilida “center” ko‘rinishida yoziladi. Bu o‘zgarishlar XIX asrda amerikalik tilshunoslar tomonidan soddalashtirish maqsadida kiritilgan. Lug‘at boyligida ham sezilarli farqlar mavjud. Masalan, Britan ingliz tilida “flat” deyilsa, Amerika ingliz tilida “apartment” ishlatiladi. Yoki “lift” (Britan) – “elevator”

(Amerika), “lorry”-“truck” kabi misollarni keltirish mumkin. Bu farqlar kundalik hayotda juda ko‘p uchraydi va til o‘rganuvchilar uchun muhim hisoblanadi. Grammatik jihatdan ham kichik farqlar mavjud. Masalan, Britan ingliz tilida hozirgi tugallangan zamon (Present Perfect) ko‘proq ishlatiladi: “I have just eaten”. Amerika ingliz tilida esa ko‘pincha oddiy o‘tgan zamon ishlatiladi: “I just ate”. Bu esa gap tuzilishida farq keltirib chiqaradi. Statistika ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda ingliz tilida so‘zlashuvchilarning katta qismi Amerika ingliz tilidan foydalanadi. Taxminan 400 milliondan ortiq inson ingliz tilini ona tili sifatida ishlatadi, ularning yarmidan ko‘pi Amerika hududida yashaydi. Bundan tashqari, internetdagi kontentning katta qismi ham Amerika ingliz tilida yaratiladi. Shu sababli, ko‘plab yoshlar aynan Amerika variantiga ko‘proq duch kelmoqda. Biroq Britan ingliz tili ham o‘z mavqei saqlab qolgan. Ayniqsa, Yevropa, Osiyo va Afrika davlatlarida ta’lim tizimida ko‘proq Britan standartlari qo‘llaniladi. IELTS imtihoni ham asosan Britan ingliz tiliga asoslangan bo‘lsa-da, Amerika varianti ham qabul qilinadi. Shunday qilib, bu ikki variant o‘rtasidagi farqlar katta emas, lekin ular tilni chuqur o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Britan va Amerika ingliz tili bir tilning ikki xil varianti bo‘lib, ular o‘rtasida talaffuz, imlo, lug‘at va grammatik jihatdan farqlar mavjud. Bu farqlar tarixiy va madaniy omillar ta’sirida shakllangan. Ingliz tilini o‘rganayotgan talabalar uchun bu farqlarni bilish juda muhim, chunki bu ularning tilni to‘g‘ri tushunishi va samarali muloqot qilishi uchun yordam beradi. Shu bilan birga, har ikkala variant ham to‘g‘ri hisoblanadi va qaysi birini tanlash o‘quvchining maqsadiga bog‘liq. Eng muhimi, tilni o‘rganishda izchillikni saqlash va tanlangan variantni muntazam qo‘llashdir. Shunda ingliz tilini o‘rganish yanada oson va samarali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shodikulova A.Z. Ingliz tili: o‘quv qo‘llanma. – Samarqand: “Tibbiyot ko‘zgusi”, 2023. – 133 bet.

E-library SamMU

2. Gadoyeva M.I., Sayitova K.H. Ingliz tili (I qism): o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2013. – 96 bet.

Библиотека ТДГУ

3. Maxkamov T.B. Ingliz tili: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Book Trade”, 2022. – 176 bet.

AKBT URSPI

4. Xo‘jayeva S.S., Babajanova Z. Ingliz tilida olmoshlar: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Urganch: “Khwarezm publication”, 2024. – 60 bet.

AKBT URSPI

5. Ingliz tili (English): o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: ToshDAU nashriyoti, 2007. – 130 bet.

Библиотека ТДГУ

6. Jalolova L. Ingliz va o‘zbek tillaridagi lingvistik xususiyatlar (maqola). – 2024. – 504–507-betlar.

conference.uzswlu.uz

7. Ma’rufjonov I. Ingliz tili zamonlari (o‘zbek tilida): o‘quv qo‘llanma. – 2023. – 34 bet.